



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
FUQARO AVIATSIYASI AGENTLIGI**

B U Y R U Q

17 avgust 2026 yil.

124-son

**O'zbekiston Respublikasining aeronavigatsiya xaritalari bo'yicha
aviatsiya qoidalarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-oktyabrdagi PF-193-son "Fuqaro aviatsiyasi sohasida davlat siyosati yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq va Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti standartlarini (4-ilovasi) tatbiq etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasining aeronavigatsiya xaritalari bo'yicha aviatsiya qoidalarini ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2009-yil 7-maydagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida aeronavigatsiya xaritalarini (chizmalarini) tayyorlash qoidalarini (O'zR FAAXTQ-173) tasdiqlash to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda 2009-yil 25-maydagi 20-15-194/15-son bilan texnik hujjat deb topilgan) hujjat mazkur buyruq rasmiy kuchga kirgan kundan e'tiboran o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

4. Devonxona ishlari bo'yicha bosh mutaxassis (O'.Umarova) mazkur buyruqni tegishli O'zbekiston Respublikasi Fuqaro aviatsiyasi tashkilotlari diqqatiga yetkazilishi ta'minlansin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishi ustidan nazorat "O'zaviatsiya" agentligi PXN Departamenti boshlig'i zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



T. Nazarov